VIRTUAL MUIHIT SHAROITIDA SHAXSNING PSIXOLOGIK IDENTIFIKATSIYASI JARAYONLARI

Rustamova Navro'za Komiljon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Psixologiyayo'nalishi1-bosqich magistranti
navruzarustamova9@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola virtual muhitning shaxsning psixologik identifikatsiya jarayonlariga ta'sirini tahlil qilishga bag'ishlangan. Zamonaviy axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlar insonning o'zini anglash va identifikatsiya qilish jarayonlariga katta ta'sir ko'rsatadi.

Maqolada, ayniqsa, o'spirin yoshdagi qizlarning virtual muhitda shaxsiy identifikatsiya jarayonlari empirik o'rganilib, ijtimoiy tarmoqlardagi faollik, virtual tasvir va o'zini taqdim etish strategiyasi tahlil qilindi. Tadqiqot o'spirin yoshdagi qizlarning "virtual men" va "real men" o'rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish uchun tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: identifikatsiya, virtual muhit, ijtimoiy tarmoqlar, virtual imidj, o'zlikni anglash.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу влияния виртуальной среды на процессы психологической идентификации личности. Современные информационные технологии и социальные сети оказывают значительное воздействие на процессы самопознания и идентификации человека. В статье, в частности, эмпирически исследуются процессы личной идентификации девушек подросткового возраста в виртуальной среде, анализируется их активность в социальных сетях, виртуальный образ и стратегии самопрезентации. Исследование предлагает рекомендации по устранению несоответствия между «виртуальным Я» и «реальным Я» у девушек подросткового возраста.

Ключевые слова: идентификация, виртуальная среда, социальные сети, виртуальный имидж, самопознание.

Annotation: This article is devoted to analyzing the impact of the virtual environment on the processes of psychological identification of the individual. Modern information technologies and social networks have a significant influence on human self-awareness and identification processes. The article empirically examines the personal identification processes of adolescent girls in the virtual environment, focusing on social media activity, virtual image, and self-presentation strategies. The study provides recommendations for overcoming the discrepancy between the "virtual self" and the "real self" among adolescent girls.

Keywords: identification, virtual environment, social networks, virtual image, self-awareness.

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida ijtimoiy tarmoqlar, virtual muht inson hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlar nafaqat muloqot vositasi, balki shaxsning o'zini anglash, o'zini taqdim etish va identifikatsiya jarayonlarida ham muhim omilga aylangan. Ayniqsa, o'spirin yoshdagi qizlar uchun virtual muhit o'ziga xos psixologik tajriba maydoniga aylanib, ularning "men" konsepsiyasini shakllantirishda sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Virtual muhitda shaxsiy identifikatsiya jarayonlari murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, unda ijtimoiy tarmoqlardagi faollik, vizual imidj yaratish, o‘zini taqdim etish strategiyalari va “virtual men” hamda “real men” o‘rtasidagi muvofiqlik masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonlar o‘spirinlarning psixologik rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va o‘zlikni anglash darajasiga bevosita ta’sir qiladi.

Shu bois, mazkur tadqiqot virtual muhit sharoitida o‘spirin yoshdagi qizlarning shaxsiy identifikatsiya jarayonlarini empirik tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlardagi faollik, virtual obraz yaratish va o‘zini taqdim etish strategiyalari o‘rganilib, “virtual men” va “real men” o‘rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Virtual muhit va shaxsning psixologik identifikatsiya jarayonlari bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud. Zamonaviy tadqiqotlar ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar insonning o‘zini anglash, o‘zini taqdim etish va ijtimoiy identifikatsiya jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi. Virtual muhit haqiqiy hayot sohasiga, shaxs hayotining muhim qismiga aylanadi, insonning o’zida ko’p narsalarni o’zgartiradi- uslub,turmushg tarzi, odatlar,qiziqishlar doirasi va muloqotni ham. Intrnetning asosiy vazifasi kundalik hayot makonini ifodalashdir, chunki intrnet nafaqat ijtimoiylashuv vazifasini amalga oshirishga qodir, balki jamiyat hayotidagi voqea va hodisalarga ma’lum maqom, ahamiyat, obro’-e’tibor berish sanaladi.[1] Raqamli qaramlik bugungi kunda yoshlar psixologiyasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatayotgan eng dolzarb muammolardan biriga aylandi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va mobil qurilmalarning jadal rivojlanishi talabalar hayotini qulaylashtirgan bo‘lsa-da, u ruhiy barqarorlik uchun muayyan xavflarni ham keltirib chiqarmoqda. Uyqu buzilishlari, diqqatning pasayishi, ijtimoiy yakkalanish va depressiya kabi salbiy oqibatlar yoshlarning hayot sifatini pasaytiradi. Shu bilan birga, raqamli qaramlik ijtimoiy munosabatlarni zaiflashtiradi, akademik o‘zlashtirishni pasaytiradi va yoshlarni real hayotdagi faoliyatdan uzoqlashtiradi.[2]

Xorijiy mamlakatlarda ham virtual muhitning shaxs identifikatsiyasiga ta’siri tadqiqotlar orqali o’rganilgan. Virtual muhit va VR texnologiyalarining ijtimoiy tadqiqotlarda qo‘llanilishi bo‘yicha chet ellik olimlar ko‘plab ilmiy ishlar olib borgan. Masalan, Xiaoying Wei va hamkorlari (2024) VR texnologiyalarining ijtimoiy platforma sifatida qo‘llanishini tahlil qilib, foydalanuvchilar o‘rtasida ijtimoiy aloqalarni shakllantirishdagi rolini ko‘rsatgan.[3] Niloofar Sayadi va hamkorlari (2024) esa 20 yillik tadqiqotlarni umumlashtirib, VR muhitida hamkorlik va muloqotni rivojlantirish imkoniyatlarini ochib bergan[4]. O‘spirinlarning identifikatsiya jarayoniga ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri bo‘yicha Hamide Avci, Laura Baams va Tina

[1] R. Otamuratov. Journal of new century. innovationshttp://www.newjournal.org/Volume–29_Issue-5_May_202325virtual muhitning shaxs rivojlanishiga ta’sir etishining psixologik xususiyatlari
[2]M.Abdulazizova.raqamli qaramlik va uning yoshlar psixologiyasiga ta’siri

[3] Wei, X., Jin, X., Kan, G. L., Yan, Y., & Fan, M. (2024). *Systematic Literature Review of Using Virtual Reality as a Social Platform in HCI Community*. arXiv.
[4] Sayadi, N., Co, S., & Gómez-Zará, D. (2024). *Feeling that I was Collaborating with Them: A 20 years Systematic Literature Review of Social Virtual Reality Leveraging Collaboration*. arXiv.

Kretschmer (2025) tizimli tahlil o‘tkazib, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish o‘zlikni anglash jarayonida muhim omil ekanini ta’kidlagan[5].

Mazkur tadqiqot metodologiyasi kompleks yondashuvga asoslanadi. Nazariy asos sifatida sotsial-psixologik yondashuv va faoliyat yondashuvi qo‘llaniladi. Sotsial-psixologik yondashuv o‘spirin yoshdagi qizlarning virtual muhitda ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘zaro ta’sirini, o‘zini anglash va identifikatsiya jarayonlarini o‘rganishga imkon beradi. Bu yondashuv shaxsning “virtual men” va “real men” o‘rtasidagi nomutanosiblikni tahlil qilishda muhimdir. Faoliyat yondashuvi esa o‘spirinlarning virtual muhitda o‘zini taqdim etish strategiyalari, vizual imidj yaratish va ijtimoiy faollik jarayonlarini kontekstda tahlil qilishga yordam beradi.

Tadqiqotda empirik metod sifatida so‘rovnoma va intervyu qo‘llaniladi: So‘rovnoma o‘spirinlarning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi, virtual obraz yaratish va texnologiyalarga bo‘lgan munosabatini aniqlashga xizmat qiladi. Intervyu esa o‘spirinlarning shaxsiy tajribalari, virtual muhitda o‘zini taqdim etish usullari va identifikatsiya jarayonidagi muammolarni chuqurroq o‘rganishga imkon beradi.

Mazkur tadqiqotda oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan o‘spirin yoshdagi qizlar orasida so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma ularning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi, virtual muhitda o‘zini taqdim etish strategiyalari va “virtual men” hamda “real men” o‘rtasidagi muvofiqlik darajasini aniqlashga qaratildi.

So‘rovnoma natijalari o‘spirinlarning ko‘pchiligi virtual muhitda o‘zini idealizatsiya qilishga moyilligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ayrim respondentlar virtual muhitni ijodkorlikni rivojlantirish va ijtimoiy muloqotni kengaytirish vositasi sifatida baholashdi.

Intervyu jarayonida esa o‘spirinlar o‘z tajribalarini, ijtimoiy tarmoqlarda o‘zini taqdim etishdagi qiyinchiliklarini va identifikatsiya jarayonidagi muammolarini ochiq ifoda etishdi. Ishtirokchilarga quyidagicha savollar bilan murojaat qilindi:



[5] Avci, H., Baams, L., & Kretschmer, T. (2025). *A Systematic Review of Social Media Use and Adolescent Identity Development*. Adolescent Research Review, Springer Nature.

Yuqoridagi natijalardan ko'rinib turganidek ishtirokchilarning ko'pchiligi tashqi nuqsonlar ko'rinib qoladigan suratlarni ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirmaslik kerak deb hisoblashadi. Bu holat ularning virtual muhitda o'zini ideal tarzda taqdim etishga intilishini ko'rsatadi. Shaxsiy imidj va tashqi ko'rinishga berilayotgan katta e'tibor "virtual men" va "real men" o'rtasidagi nomutanosiblikni kuchaytirishi mumkin. Shuningdek, respondentlarning ko'pchiligi internetda o'tkazadigan vaqtining tobora ko'payib borayotganini tan olgan. Bu esa raqamli muhitning o'spirinlarning kundalik hayotida markaziy o'rin egallayotganini va ularning ijtimoiy hamda psixologik rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi. Natijalardan yana bir muhim jihat shuki, ishtirokchilarning ko'pchiligi internetdagi imidj mukammal bo'lishi kerak deb hisoblashadi. Bu qarash virtual muhitda o'zini idealizatsiya qilish tendensiyasini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, virtual muhit o'spirin yoshdagi qizlarning shaxsiy





identifikatsiya jarayonida muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. So‘rovnoma va intervyu natijalari ularning ko‘pchiligi tashqi nuqsonlar aks etgan suratlarni ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirishdan tiyilishlarini, internetda sarflanadigan vaqtning ortib borayotganini hamda virtual imidjni mukammal saqlashga intilayotganini ko‘rsatdi. Bu holatlar o‘spirinlarning “virtual men” va “real men” o‘rtasida muayyan nomutanosibliklarni yuzaga keltirishi bilan birga, ijodkorlikni rivojlantirish, kommunikativ ko‘nikmalarni mustahkamlash va ijtimoiy faollikni oshirish imkoniyatlarini ham taqdim etadi. Demak, virtual muhitning ta’siri murakkab va ikki tomonlama bo‘lib, u ijobiy hamda salbiy jihatlarni birgalikda o‘zida mujassam etadi.

Shu sababli, sog‘lom identifikatsiya jarayonini qo‘llab-quvvatlash uchun pedagoglar, psixologlar va ota-onalar tomonidan o‘spirinlarning raqamli muhitdagi faoliyatini nazorat qilish, ijobiy kommunikatsiya strategiyalarini shakllantirish va raqamli madaniyatni rivojlantirish zarur. Bu yondashuv o‘spirinlarning ijtimoiy rivojlanishini barqarorlashtirish va “virtual men” hamda “real men” o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R. Otamuratov. Journal of new century. innovationshttp://www.newjournal.org/Volume–29_Issue- virtual muhitning shaxs rivojlanishiga ta’sir etishining psixologik xususiyatlari
2. M.Abdulazizova.raqamli qaramlik va uning yoshlar psixologiyasiga ta’siri
3. Wei, X., Jin, X., Kan, G. L., Yan, Y., & Fan, M. (2024). Systematic Literature Review of Using Virtual Reality as a Social Platform in HCI Community. arXiv.
4. Sayadi, N., Co, S., & Gómez-Zará, D. (2024). Feeling that I was Collaborating with Them: A 20 years Systematic Literature Review of Social Virtual Reality Leveraging Collaboration. arXiv.
5. Avci, H., Baams, L., & Kretschmer, T. (2025). A Systematic Review of Social Media Use and Adolescent Identity Development. Adolescent Research Review, Springer Nature.